

Kelib chiqishi va morfologik xususiyatlari

Amarant (shiritsa) — bu bir yillik gultojxo'rozlar (*Amaranthaceae*) oilasiga mansub o'simlik. O'simlik balandligi 2–3 m gacha yetadi, poyasining yo'g'onligi 8–10 sm.

Amarant o'simligi — yuqori mahsuldorligi, qimmatbaho kimyoviy tarkibi tufayli hozirgi paytda dunyoga ma'lum. Uning donidan oziq-ovqat, yem-xashak, siderat ekinlari sifatida foydalanish va biologik faol moddalar olishda muhim ahamiyatga ega.



Professor Toderich K. va dotsent Raximov R. hamda Institut direktori Rajabov T. dala kuzatuvlari olib bormoqda.

Ilmiy tadqiqotlar va davlat dasturlari doirasida amarant

Qoraqalpog'iston Respublikasi sharoitiga mos noan'anaviy ekinlarni tanlash maqsadida "FZ-2021021062 Qoraqalpog'iston tuproq iqlim sharoitiga mos amarant o'simligini yetishtirish agrotexnologiyasini ishlab chiqish" loyihasi 2021–2022-yillar davomida amalga oshirildi. Loyiha doirasida sho'rlangan va qurg'oqchil maydonlardan samarali foydalanish texnologiyasida amarant o'simligidan yuqori sifatli don va chorvachilik uchun ozuqa yetishtirish agrotexnologiyasi ishlab chiqildi hamda oziq-ovqat, farmatsevtika va chorvachilikda foydalanish uchun stress sharoitiga chidamli nav liniyasi tanlab olindi.



Amarant oilasiga mansub o'simlik.



"Turob bobo" fermer xo'jaligi

Sultanova Z., Mambetova N., Kurbanov A., Toderich K., Akashi Kinya., Matsuo Naoko., Raximov R., Mukimov T., Rajabov T., Abdurasulov O.



Amaranthus retroflexus

AMARANT

YUQORI OQSILLI OZIQ-OVQAT VA YEM-XASHAK O'SIMLIGI

Xo'jalik ahamiyati va ekologik moslashuvi

BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha tashkiloti (FAO) tomonidan amarant mavjud madaniy o'simliklar orasida inson va jamiyat taraqqiyoti uchun eng foydali va iqtisodiy jihatdan yuqori daromad keltiradigan ekin sifatida o'rganib, XXI asr o'simligi deb e'lon qilindi. Qurg'oqchilikka chidamli bo'lib, suvdan samarali foydalanadi, doni oziq-ovqat va o'simlikning barcha qismlari chorva mollari uchun qimmatli ozuqa hisoblanadi.

Respublikamizning sho'rlangan maydonlaridan samarali foydalanish, tuproq degradatsiyasini oldini olish va suv taqchilligini hisobga olib, bugungi kunda amarantni oziq-ovqat uchun foydalanish texnologiyasini ishlab chiqish va qayta ishlashni tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.


Yetishtirish xususiyatlari

Amarantni ekish barqaror iliq ob-havoda (aprel-may), tuproq 10-12 °C gacha isiganda amalga oshiriladi va hozirda yetilayotgan hosildan yuqori natija olinmoqda. O'simliklar bo'yi 10–15 sm ga yetganda gektariga 40 kg azot va 20 kg kaliy o'g'iti berib, qator oralari 5–6 sm chuqurlikda yumshatiladi. Ikkinchi oziqlantirish o'simlik 30–35 sm bo'lganda gektariga 30 kg azotli va fosforli o'g'itlar bilan amalga oshiriladi. Mavsum davomida tuproq va iqlim sharoitidan kelib chiqib, amarantni 3–7 marta sug'orish tavsiya etiladi va gektariga 95–105 kg azot, 70 kg fosfor, 50 kg kaliy o'g'iti beriladi. Bizning stress sharoitimizda faqat bir marta sug'orilgan amarant doni hosildorligi suv tanqisligi kuzatilgan 2022-yil prognozi bo'yicha 16,4–22,7 ts/ga ni tashkil etdi.

Amarantning yashil massasi chorvachilikda mo'ljil silos tayyorlashda foydalanish uchun 2-may sanasida ekilganda yashil massa gektariga 127,0–135,0 tonnani tashkil etdi.

Oziq-ovqat va sog'liq uchun ahamiyati

Amarantning asosiy xususiyati past miqdorda qand va yuqori miqdorda oqsil to'plashi bo'lib, tarkibida K (1,2%), Ca (2,5%), P (0,2%), Si (0,8%), Mg (1,1%), temir, marganets, titan, tsink kabi makro va mikroelementlar mavjud: kletchatka – 14%, protein – 18%, qand – 18%. Amarant urug'i nafas olish a'zolari kasalliklari (bronxit, laringit, plevrit, pnevmoniya), endokrin korreksiya (kamqonlik, avitaminoz, semizlik, qandli diabet, zob), suyak va qon-tomir kasalliklari (osteoxondroz, artroz, artritar), onkologik kasalliklar hamda uyqusizlik va jinsiy kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.



Amarant uning energetik qiymati 100 gramm uchun 298 kkal ga teng va foydali lizin aminokislotalari yuqori, to'liq taqsimga ega oqsil manbai hisoblanadi. Fosfolipidlar va E vitamini ichki organlar tizimiga kuchli antioksidant ta'sir ko'rsatib, immunitetni saqlaydi, protein sholi doniga nisbatan 2 baravar ko'p, bir sutkada talab etiladigan 31% kalsiy, 82% temir va 14% vitamin C mavjud.

Amarant ertalabki ovqat uchun foydali bo'lib, kun bo'yi kerakli energiya bilan organizmni ta'minlaydi, donidan bo'tqalar, unidan pishiriqlar tayyorlanadi va ko'p kletchatka tufayli ichak va organizmni tozalashda ishlatiladi. Amarant uni qo'shilgan non sifatida yaxshilanadi, uzoq vaqt yangiligini va yumshoqligini saqlab, yoqimli yong'oq ta'miga ega bo'ladi.

